



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 1-son

VOLUME 6 / ISSUE 1 / 2026  
ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.1)

ISSN 2181-2179  
DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ)





# MUNDARIJA

## 12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

### **Sultonova Lobar Mamarayim qizi**

EKSTRADITSIYANI JINOYAT-PROTSESSUAL TARTIBGA SOLISHDA  
XALQARO KELISHUVLARNING ROLI ..... 8

## 12.00.10 – XALQARO HUQUQ

### **Gafurova Shoira Baxodirovna**

XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLARNING MAQBULLIK VA  
ISHONCHLILIK MEZONLARI .....21

## 12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

### **Nuridinov Ramzidin Lutfidin o'g'li**

DAVLAT XARIDLARINI RAQAMLASHTIRISH KORRUPTION XAVFLARINI  
KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....33

## 12.00.13 – INSON HUQUQLARI

### **Tillaboyev Shohruxbek Mirzatillo o'g'li**

XALQARO HUQUQDA RAQAMLI INSON HUQUQLARI: HUQUQLARNING  
YANGI AVLODI SHAKLLANISHI .....42

## 12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIYA FAOLIYATI

### **Islombekov Bexzodbek Islombekovich**

METROPOLITEN OBYEKTLARIDA QOLDIRILGAN NARSA VA ASHYOLARNING  
JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI .....60

### **Normatova Shirin Abdulnabiyevna**

TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN JABRLANGAN XOTIN-QIZLARNI  
REABILITATSIYA QILISH TARTIBINING NAZARIY JIHATLARI .....68

# СОДЕРЖАНИЕ

## 12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

**Султонова Лобар Мамарайим кизи**

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ  
РЕГУЛИРОВАНИИ ЭКСТРАДИЦИИ ..... 8

## 12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

**Гафурова Шоира Баходировна**

КРИТЕРИИ ДОПУСТИМОСТИ И ДОСТОВЕРНОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ  
В МЕЖДУНАРОДНОМ УГОЛОВНОМ ПРАВЕ .....21

## 12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

**Нуридинов Рамзидин Лутфидин угли**

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК КАК ИНСТРУМЕНТ  
СНИЖЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ .....33

## 12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

**Тиллабоев Шохрухбек Мирзатилло угли**

ЦИФРОВЫЕ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ:  
СТАНОВЛЕНИЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ ПРАВ .....42

## 12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**Ислombeков Бехзодбек Ислombeкович**

УГРОЗА ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ, СВЯЗАННАЯ С ОСТАВЛЕННЫМИ  
ВЕЩАМИ И ПРЕДМЕТАМИ НА ОБЪЕКТАХ МЕТРОПОЛИТЕНА .....60

**Норматова Ширин Абдулнабиевна**

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОРЯДКА РЕАБИЛИТАЦИИ ЖЕНЩИН,  
ПОСТРАДАВШИХ ОТ ПРИТЕСНЕНИЯ И НАСИЛИЯ .....68

# CONTENTS

## 12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

### **Sultonova Lobar Mamarayim kizi**

THE ROLE OF INTERNATIONAL AGREEMENTS IN THE CRIMINAL  
PROCEDURAL REGULATION OF EXTRADITION ..... 8

## 12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

### **Gafurova Shoira Bakhodirovna**

CRITERIA FOR ADMISSIBILITY AND RELIABILITY OF EVIDENCE  
IN INTERNATIONAL CRIMINAL LAW .....21

## 12.00.12 – CORRUPTION PROBLEM

### **Nuridinov Ramzidin Lutfidin ugli**

DIGITALIZATION OF PUBLIC PROCUREMENTS AS A TOOL FOR REDUCING  
CORRUPTION RISKS .....33

## 12.00.13 – HUMAN RIGHTS

### **Tillaboev Shohrukhbek Mirzatillo ugli**

DIGITAL HUMAN RIGHTS IN INTERNATIONAL LAW:  
THE FORMATION OF A NEW GENERATION OF RIGHTS .....42

## 12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

### **Islombekov Bekhzodbek Islombekovich**

THE THREAT OF ABANDONED ITEMS AND OBJECTS  
TO PUBLIC SAFETY IN METROPOLITAN FACILITIES .....60

### **Normatova Shirin Abdulnabiyevna**

THEORETICAL ASPECTS OF THE REHABILITATION PROCEDURE FOR  
WOMEN VICTIMS OF HARASSMENT AND VIOLENCE .....68

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.02.2026  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 02.03.2026  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.6.1./QFNL6514>

UDC: 341.4(045)(575.1)

# XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLARNING MAQBULLIK VA ISHONCHLILIK MEZONLARI

**Gafurova Shoira Baxodirovna,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-2170-3756>

e-mail: [shgafurova707@gmail.com](mailto:shgafurova707@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro jinoyat huquqining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan dalillarning maqbulligi va ishonchliligi mezonlari masalasi ko'rib chiqilgan. Xalqaro jinoiy sudlar va tribunallar tomonidan ko'rib chiqiladigan xalqaro jinoyatlarning ko'lamiga kengligi va murakkabligi sababli, bu sohadagi o'zgarishlar va shu paytgacha to'plangan tajribani dalillar maqbulligi nuqtayi nazaridan o'rganish mavjud muammolarni ham ochib beradi. Maqolada Xalqaro harbiy tribunallar, sobiq Yugoslaviya va Ruanda bo'yicha xalqaro jinoiy tribunallar hamda Xalqaro jinoyat sudining tegishli qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilinadi. Shuningdek, dalillar uchun umumiy asos bo'lgan Xalqaro jinoyat sudining Rim statutidagi moddalar ham ko'rib chiqilib, ular boshqa sud organlari qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Bundan tashqari, umuman xalqaro sud tizimi doirasida, ya'ni faqat jinoiy xususiyatga ega xalqaro sud organlari bilangina cheklanmagan holda, dalillarning maqbulligi bo'yicha ba'zi umumiy xulosalar ham keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro sud tizimi, xalqaro jinoiy sudlar, tribunallar, dalillar, dalillarning maqbulligi

## КРИТЕРИИ ДОПУСТИМОСТИ И ДОСТОВЕРНОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В МЕЖДУНАРОДНОМ УГОЛОВНОМ ПРАВЕ

**Гафурова Шоира Баходировна,**

базовый докторант Ташкентского  
государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос критериев допустимости и достоверности доказательств как одного из основных направлений международного уголовного права. В связи с широтой

и сложностью международных преступлений, рассматриваемых международными уголовными судами и трибуналами, изучение изменений в данной сфере и накопленного на сегодняшний день опыта с точки зрения допустимости доказательств позволяет выявить существующие проблемы. В статье анализируются соответствующие нормы законодательства и практика Международных военных трибуналов, Международных уголовных трибуналов по бывшей Югославии и Руанде, а также Международного уголовного суда. Кроме того, рассматриваются положения Римского статута Международного уголовного суда, являющиеся общей правовой основой для оценки доказательств, и проводится их сравнительно-правовой анализ с законодательством других судебных органов. Также в статье приводятся некоторые общие выводы относительно допустимости доказательств в рамках международной судебной системы в целом, не ограничиваясь лишь международными судебными органами уголовного характера.

**Ключевые слова:** международное уголовное право, международная судебная система, международные уголовные суды, трибуналы, доказательства, допустимость доказательств

## CRITERIA FOR ADMISSIBILITY AND RELIABILITY OF EVIDENCE IN INTERNATIONAL CRIMINAL LAW

**Gafurova Shoira Bakhodirovna,**

Basic Doctoral Student at Tashkent State University of Law

**Abstract.** *This article examines the criteria for the admissibility and reliability of evidence, which is one of the main areas of international criminal law. Due to the wide scope and complexity of international crimes considered by international criminal courts and tribunals, the changes in this area and the study of the experience gained so far in terms of the admissibility of evidence also reveal existing problems. The article analyzes the relevant legislation and practice of the International Military Tribunals, the International Criminal Tribunals for the former Yugoslavia and Rwanda, and the International Criminal Court. Also, the articles of the Rome Statute of the International Criminal Court, which are the general basis for evidence, are considered and compared with the legislation of other judicial bodies. In addition, within the framework of the international judicial system as a whole, that is, not limited to international judicial bodies of a criminal nature, some general conclusions on the admissibility of evidence are also presented.*

**Keywords:** *international criminal law, international judicial system, international criminal courts, tribunals, evidence, admissibility of evidence*

### Kirish

Dalillarning huquqiy tushunchasi tarixan o'zgaruvchan bo'lib, u universal xarakterga ega emas. O'rta asrlardagi "sinovlar orqali hukm chiqarish" davridan

bugungi zamonaviy huquqiy tizimlarga bo'lgan masofa dalillarga bo'lgan yondashuvning tubdan isloh qilinganini ko'rsatadi. Bugungi kunda dunyodagi huquqiy tizimlar, xususan, Anglo-Amerika huquqi va Kontinental Yevropa huquqiy an'analari o'rtasida dalillarni to'plash va baholashda jiddiy farqlar mavjud. Zamonaviy xalqaro sud amaliyotida dalillarning maqbulligi va ishonchliligi adolatli sudlov tamoyillarini ta'minlanishning asosiy ustuni hisoblanadi. Xalqaro sudlar milliy tizimlardan farqli o'laroq, ko'pincha murakkab va transchegaraviy jinoyatlarni ko'rib chiqqani sababli, bu yerda dalillarga yondashuv o'ziga xosdir. Xususan, xalqaro jinoyat huquqi nazariyasida taniqli olimlardan biri A. Kasseze xalqaro jinoyat sudlarida dalillarni baholash jarayonida sudyalarga keng diskretsiya berilganini ta'kidlaydi (Cassese, 2013). Uning fikriga ko'ra, qat'iy protsessual cheklovlardan ko'ra, ish bo'yicha haqiqatni aniqlash ustuvor hisoblanadi. Dalillarni qabul qilishda uning ishga aloqadorligi va haqiqatni yuzaga chiqarishdagi roli muhim. Shu bilan birga, dalil albatta qonuniy yo'l bilan olingan bo'lishi shart.

Shuningdek, K. Ambos (2013) dalillarning maqbulligini aniqlashda ularning kelib chiqish manbayi, to'planish jaryonining qonuniyligi va protsessual normalarga mosligi muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, xalqaro sudlar milliy sudlardan farqli ravishda dalillarni baholashda erkinroq yondashuvga ega bo'lsa-da, inson huquqlarining buzilishi (masalan, qiynoq) orqali olingan dalillar har qanday holatda ham maqbul emas deb hisoblanadi. R. May va S. Vierda qarashlariga ko'ra, xalqaro sudlarda dalillarni baholashdan ko'zlangan asosiy maqsad – obyektiv haqiqatga erishishdir. Bunda quyidagi mezonlar muhim (May & Wierda, 2002):

- dalillarning o'zaro bog'liqligi,
- manbaning ishonchliligi;
- bitta dalilning boshqa mustaqil dalillar bilan tasdiqlanishi.

Dalillar, odatda, jinoyat ishida jinoyatni isbotlashning asosiy unsurlari hisoblanadi va isbotlash jarayonlari aniqlagan hamda ish doirasiga kiritgan faktlar yoki narsalar bilan ifodalanadi (Khattab, 2009). Barcha xalqaro sudlar, jumladan, Xalqaro jinoyat sudi tomonidan qabul qilingan sudyaning ichki ishonchi prinsipi mavjud. Unga ko'ra, sudya o'zi ishonchli deb topgan har qanday dalilni qabul qilishga haqlidir. Bu sudyaning muayyan bir dalil bilan cheklanmasligini anglatadi. Garchi dalillarning turli tasniflari mavjud bo'lsa-da, ular orasida eng muhimi dalillarning o'zaro aloqadorligiga asoslangan tasnifdir (Al-Muhtadi Billah, 2010).

### **Asosiy qism**

Dalillarni "sud jarayonlari doirasida nizoli o'tmish hodisalarini qayta tiklash vositasi" sifatida ta'riflash mumkin (Murphy, 2003, p. 10). "Maqbullik" atamasi kelib chiqishi jihatidan anglo-amerikacha bo'lib, xalqaro protseduraning keng qoidalariga tatbiq etilmaydigan o'ziga xos texnik ahamiyatga ega (Sandifer, 1939, p. 120). Shubhasiz, maqbullik turli jinoiy adliya tizimlarida turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Umumiy huquq tizimlarida potensial tushunchalarning tegishli doirasi ancha keng bo'lib, unga ma'lumotning dolzarbligi va isbotlovchi qiymati masalalari ham kiradi. Fuqarolik huquqida esa nomaqbullik odatda noqonuniy yo'l bilan olingan dalillar bilan bog'liq bo'ladi (Thakur & Malcontent, 2004, p. 136).

Dalillarning maqbulligi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 6-moddasida mustahkamlangan odil sudlovga bo'lgan asosiy huquqqa bog'liq. U dalillarning o'ziga xos xususiyatlarini ham, ularni olishda qo'llangan usullarni ham hisobga olgan holda har tomonlama baholashni belgilab qo'ygan. Ta'kidlash joizki, bu atamalar ilmiy adabiyotlarda ko'pincha chalkashtirib yuboriladi. Buning sababi yuqorida keltirilgan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi, bir-biri bilan chambarchas aloqadorligi, ular o'rtasidagi uzviy bog'lanish mavjudligi va bu tushunchalar o'rtasidagi farq har doim ham aniq bo'lmasligi yoki faqat muayyan protsessual vaziyatlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazern noqonuniy dalillarga yo'l qo'yib bo'lmasligini tan olsa ham, ikkala atamani ishlatadi, lekin ularni tenglashtirmaydi, garchi u: "Noqonuniy yo'l bilan olingan dalillarga hech qachon yo'l qo'yib bo'lmaydi", – deb ta'kidlagan (Mathern, 1984). Burdaning (2008) fikricha, qonunga xilof ravishda olingan dalillar, agar ularning noqonuniyligi bartaraf etilmasa va keyinchalik yo'q qilinmasa, prinsipial jihatdan jinoyat sudida maqbul bo'lishi mumkin emas. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, Sirovi ma'lum hollarda noqonuniy yo'l bilan olingan dalillardan foydalanishga yo'l qo'yadi (Syrovy, 2007).

Umumiy huquq tizimidagi jinoiy sud jarayonida sudya hakamlar hay'atiga taqdim etilishi mumkin bo'lgan mavjud ma'lumotlarni saralashi va ularning maqbulligini aniqlashi kerak bo'lsa, fuqarolik huquqi tizimlarida professional sudyaning vazifasi faktlarni aniqlashdan iboratdir. Bu aslida ayblov va tergov tizimlarida sudyalari, prokurorlar va hatto ayblanuvchilarga yuklatilgan turli rollarning bir ko'rinishi, xolos. Shu sababli, ta'qib qilinishi lozim bo'lgan jinoyatlarning ko'lami hamda potensial dalil manbalarining miqdori sud jarayonining borishiga ta'sir ko'rsatadi va ularni har qanday ichki jinoyat ishi bilan taqqoslab bo'lmaydi. Shu bois, bizning tahlilimiz me'yoriy asoslarni va ularning Xalqaro harbiy tribunallar, Xavfsizlik Kengashi tomonidan tashkil etilgan maxsus tribunallar, ya'ni sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali (ICTY) va Ruanda bo'yicha xalqaro jinoyat sudi (ICTR) hamda doimiy faoliyat yurituvchi Xalqaro jinoyat sudi (ICC) tomonidan qo'llanishini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Shundan so'ng, tortishuv va tergov elementlarining muammoli uyg'unligi ular oldidagi sud jarayoni fonida baholanadi. Biroq har qanday ishonchli tadqiqot xalqaro sudlarning, jumladan, jinoiy bo'lmagan sudlarning ham dalillarga umumiy yondashuviga e'tibor qaratmasa, to'liq bo'lmaydi. Xulosa qilib aytganda, faqatgina yuqorida qayd etilgan barcha jihatlarni inobatga olgan holda, xalqaro jinoiy sudlar va tribunallarda dalillarning maqbulligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

### *1. Xalqaro harbiy tribunallar*

Zamonaviy xalqaro jinoiy odil sudlovning ildizlari Ikkinchi jahon urushidan so'ng tashkil etilgan Xalqaro harbiy tribunal (XHT) va Uzoq Sharq uchun xalqaro harbiy tribunal (UXHT)ga borib taqaladi. Amaliy asosni yaratishdagi eng katta qiyinchilik, chamasi, ikki xil protsessual tizimni qanday muvofiqlashtirishdan iborat edi (Syrovy, 2007). Xalqaro harbiy tribunallar nizomlarida dalil-isbotlar masalasiga faqat yuzaki to'xtalib o'tilgan.

XHT Nizomining 19-moddasida shunday deyilgan: “Tribunal dalillarni qabul qilishning texnik qoidalari bilan cheklanmasligi kerak. U imkon qadar tezkor va norasmiy (notexnik) tartibni qabul qiladi hamda o‘zi isbotlovchi ahamiyatga ega deb hisoblagan har qanday dalilni qabul qiladi”. UXHT Nizomining 13(a)-moddasi ham shunga o‘xshash tarzda tuzilgan bo‘lib, unda “ayblanuvchining barcha e’tiroflari yoki bayonotlari”ni dalil sifatida qabul qilish mumkinligi to‘g‘risida qo‘shimcha qoida kiritilgan. Tokio tribunalida bo‘lib o‘tgan sud jarayoniga kelsak, hindistonlik sulya Radhabinod Pal o‘zining alohida fikrida ushbu tartibni quyidagicha qattiq tanqid qilgan:

“Dalillarni qabul qilishda bunday erkinlik, aslida, adolat tamoyillariga ziddir. Agar sud o‘zi xohlagan har qanday ma’lumotni, hatto bilvosita (mish-mish) gaplarni ham dalil sifatida qabul qilaversa, bu himoya huquqini cheklaydi va sudning xolisligiga putur yetkazadi. Bunday “notexnik” yondashuv ayblanuvchining taqdirini oldindan belgilab qo‘yish bilan barobardir” (Pal, 2008). XHT va UXHT Nizomlarida noqonuniy yoki noto‘g‘ri olingan dalillarni istisno qilish bo‘yicha maxsus qoidalar mavjud emas edi.

Xalqaro harbiy tribunallarga kelsak, isbotlash qoidalarning moslashuvchanligi adolat chegaralaridan chiqib ketishi oqibatida suiiste‘molchiliklarga yo‘l ochishi mumkin degan haqli savol tug‘iladi (Wallach, 1999). Ayrim ekspertlar esa, aksincha, dalillar keltirish tartibining yumshatilishi hech qanday salbiy oqibatlarga olib kelmaganini hamda Nyurnberg tribunali qo‘llagan protsessual normalarning adolatliligi hech qachon shubha ostiga olinmaganini ta’kidlaydilar (Goodhart, 2008, pp. 628–629). Har qanday holatda ham, Xavfsizlik Kengashi tomonidan sobiq Yugoslaviya va Ruanda bo‘yicha xalqaro jinoiy tribunallar tashkil etilgunga qadar, Nyurnberg va Uzoq Sharq harbiy tribunallari amaliyoti uzoq yillar davomida xalqaro jinoiy odil sudlovning yagona tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qildi.

## 2. Jinoiyat ishlari bo‘yicha ad hoc xalqaro tribunallar

*Ad hoc* (muayyan holat uchun tuzilgan) xalqaro jinoiyat tribunallari dalillarni qabul qilish borasida ancha yumshoq va moslashuvchan qoidalarni joriy etdi. Sobiq Yugoslaviya bo‘yicha xalqaro jinoiyat tribunali (YXJT) va Ruanda bo‘yicha xalqaro jinoiyat tribunali (RXJT) ustavlari sudyalarga quyidagi masalalar bo‘yicha protsessual va dalillarga oid qoidalarni ishlab chiqish vakolatini bergan (United Nations, 1994). Sudyalar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu qoidalar sudlov hay’atlariga “isbotlovchi kuchga ega deb topilgan har qanday tegishli dalilni” qabul qilish imkonini berdi:

- sud jarayonining dastlabki bosqichi;
- sud muhokamasi va apellyatsiya bosqichlari;
- dalillarni maqbul deb topish va qabul qilish;
- jabrlanuvchilar hamda guvohlarni himoya qilish.

Mutaxassislarning fikricha, ushbu qoidalar shunchaki kontinental (fuqarolik) va anglo-sakson (umumiy) huquq tizimlarining aralashmasi emas, balki hech bir tizimni aynan takrorlamaydigan “o‘ziga xos” (sui generis) tartib sifatida baholanadi (Murphy, 2008).

Tribunal prezidenti Antonio Kasseze o‘zining birinchi yillik hisobotida shunday qayd etgan edi: “Nyurnberg va Tokio sudlarining cheklangan tajribasiga tayangan

holda, Kontinental Yevropa hamda boshqa hududlarda ustunlik qiluvchi tergov (*inkvizitsion*) tizimidan farqli o'laroq, asosan tortishuv (*akuzator*) yondashuvini qabul qildi" (Prosecutor v. Aleksovski, 1999).

Mazkur kuzatuvdan so'ng, tizimda tortishuv tamoyilidan muayyan "chetga chiqishlar" mavjudligi ham e'tirof etildi. Bular sirasiga quyidagilar kiritildi (Prosecutor v. Tadić, 1996):

- dalillarning maqbulligini belgilovchi texnik qoidalarning mavjud emasligi;
- tribunalning o'z tashabbusi bilan qo'shimcha yoki yangi dalillar taqdim etishni buyurish vakolati.

Tribunal amaliyoti ushbu holatni to'liq aks ettirganini ko'rish mumkin. Shu sababli, dalillar Tribunal muhokamasining rasmiy tortishuv xususiyatiga qaramay, ko'proq fuqarolik huquqi an'analarga xos bo'lgan "erkin isbotlash" tamoyili asosida ko'rib chiqildi.

YXJT uchun protsessual qoidalarni ishlab chiqishda qurolli mojaro sharoitidan kelib chiqadigan cheklovlar, xususan, hujjatli dalillarni to'plash imkoniyati cheklanganligi inobatga olindi. Shunga ko'ra, "Xalqaro tribunal dalillarning maqbulligi mezonlari borasida haddan tashqari qat'iy bo'lmasligi kerak" degan xulosaga kelindi. Zero, murakkab texnik qoidalarning joriy etilishi sud jarayonini faqat murakkablashtirishi, deb hisoblangan.

Vaqt o'tishi bilan ad hoc tribunallar amaliyoti, garchi mohiyatan tortishuv (*adversarial*) modeliga juda yaqin bo'lsa-da, sudyaning yanada faolroq rol egallashi tomon o'zgarib bordi. Ushbu o'zgarishlar, asosan, sudyalar tomonidan protsessual qoidalarga tez-tez kiritilgan tuzatishlar natijasida yuz berdi. *Aleksovski* ishi bo'yicha Apellyatsiya palatasi quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Qoidalarning maqsadi – adolatli va tezkor sud muhokamasini ta'minlashdir; Sud palatalari ushbu maqsadga erishish uchun moslashuvchan yondashuvga ega bo'lishi lozim".

Shu nuqtayi nazardan, YXJT tomonidan Himoya tomonining dalillarni mazmunan eshitmasdan turib qabul qilish haqidagi iltimosnomasini rad etish to'g'risidagi dastlabki qarori muhim ahamiyatga ega. Tribunal o'z qarorini quyidagicha izohladi: "Ushbu tartib, agar Xalqaro tribunaldagi sud jarayonlari hakamlar hay'ati (maslahatchilar) ishtirokida o'tkazilganda maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin edi. Biroq bizning holatda bu tartib o'rinsizdir, chunki sud muhokamasi o'z tayyorgarligi va tajribasiga ko'ra dalillarni bevosita eshitishga hamda ularga munosib baho berishga qodir bo'lgan professional sudyalar tomonidan o'tkaziladi. Faqat shundan keyingina ular dalillarning dolzarbligi va isbotlovchi kuchini aniq belgilashlari mumkin" (Kress, 2003).

### 3. Xalqaro jinoyat sudi

Doimiy Xalqaro jinoyat sudi statutini muhokama qilish jarayonida umumiy huquq va fuqarolik huquqi an'analari o'rtasida o'zaro kelishuvga erishish zarur edi. Bu esa "odil sudlov va tegishli huquqiy tartib-taomillar borasidagi fuqarolik va umumiy huquq tushunchalarining nozik uyg'unlashuviga" olib keldi. Shunga qaramay, "Rim statutidagi murosaga ko'ra, dalillarning maqbulligi bo'yicha umumiy huquq tizimiga xos bo'lgan texnik rasmiyatchiliklardan voz kechildi va fuqarolik huquqi tizimidagi moslashuvchanlikka ustunlik berildi. Bunda sudga "har qanday dalilning aloqadorligi

yoki maqbulligi to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qilish vakolati” berildi (Piragoff, 2001, pp. 351–354).

Xalqaro huquq komissiyasi xalqaro jinoyat sudini tashkil etish masalasini muhokama qilgan dastlabki bosqichlarda, dalillar to‘g‘risidagi qoidalar Statutning o‘ziga kiritish uchun o‘ta murakkab ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Shu sababli, ushbu normalarni alohida hujjatda belgilash zaruriyati tug‘ildi. Keyingi ishlar davomida Statut faqat dalillarni tartibga soluvchi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga olishi, tafsilotlar, ikkinchi darajali va yordamchi qoidalar esa Statutga qaraganda osonroq o‘zgartiriladigan va sudga o‘z amaliyoti hamda talablariga muvofiq moslashuvchan qoidalarni qabul qilish imkonini beradigan Qoidalarda batafsilroq ishlab chiqilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Kutilganidek, Rim statutining yakuniy matnida dalillarga oid qoidalar batafsil yoritilmadi (bu vazifa Ishtirokchi davlatlar assambleyasi tomonidan qabul qilingan qo‘shimcha hujjatlarga yuklatildi). Biroq Statutning 69-moddasi alohida ahamiyatga ega. Ayrim huquqshunos olimlarning fikriga ko‘ra, ushbu modda umumiy huquq (*common law*) tizimiga xos bo‘lgan fundamental prinsiplarni o‘z ichiga olgan holda, sudlov jarayonining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihati shundaki, ushbu qoida turli huquqiy an‘analar va kontinental huquq tizimiga ham ishora qiladi. Rim statuti 69-moddasining 3-bandiga ko‘ra, taraflar ishga tegishli dalillarni taqdim etishlari lozim. Shu bilan birga, “Sud haqiqatni aniqlash uchun zarur deb hisoblagan barcha dalillarni taqdim etishni so‘rash vakolatiga ega”. Mazkur qoidaning mazmuni qisman inkvizitsion (surishtiruv) modeliga yaqin bo‘lib ko‘rinishi mumkin, biroq u o‘zining qat‘iy shaklida namoyon bo‘lmaydi. Chunki sudyalarda haqiqatni aniqlash bo‘yicha mutlaq majburiyatga ega emaslar, shu bilan birga, sof dispozitiv (raqobatli) modeldagi kabi passiv hakam (arbitr) bo‘lib ham qolmaydilar (Jasiński, 2016).

Dalillarning maqbulligiga oid eng aniq qoida 69-moddaning 4-bandida keltirilgan: “Sud har qanday dalilning ahamiyati yoki maqbulligi to‘g‘risida, jumladan, dalilning isbotlovchi qiymatini hamda bunday dalilning adolatli sud muhokamasiga yoki guvoh ko‘rsatmalarini xolisona baholashga yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday zararni hisobga olgan holda qaror chiqarishi mumkin”. 69-modda sud muhokamasiga oid 6-qismga tegishli bo‘lsa-da, Protsessual harakatlar va dalillar to‘g‘risidagi qoidalarning 63(1)-bandiga ko‘ra, dalillarga oid qoidalar 69-modda bilan birgalikda barcha palatalardagi ish yurituvda qo‘llanadi va shu orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklar bartaraf etiladi. Dalillarni istisno qilish standarti Rim statutining 69(7)-moddasiga kiritilgan. Unga ko‘ra, “Ushbu Statut yoki xalqaro tan olingan inson huquqlarini buzish yo‘li bilan olingan dalillar, agar:

(a) qoidabuzarlik dalillarning ishonchliligiga jiddiy shubha tug‘dirsa; yoki

(b) dalillarni tan olish ish yuritish yaxlitligiga zid bo‘lsa va unga jiddiy zarar yetkazsa, maqbul hisoblanmaydi”. 69-moddaning 3-bandiga ko‘ra, taraflar ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarni taqdim etishlari kerak. Biroq “Sud haqiqatni aniqlash uchun zarur deb hisoblagan barcha dalillarni taqdim etishni so‘rash vakolatiga ega”. Shubhasiz, 69(7)-modda noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillarni avtomatik ravishda maqbul emas deb topish modelini nazarda tutadi.

XJS, boshqa xalqaro sudlar kabi, dalillarni baholashda milliy huquqiy normalar bilan cheklanib qolmaydi. Bu borada “Prokuror Lubangaga qarshi” ishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur ish doirasida Birinchi sud palatasi quyidagi xulosani ilgari surgan: “Milliy protsessual qonunlarni buzgan holda olingan dalillar, garchi bu qoidalar inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy standartlarni amalga oshirsa ham, Ustavning 69(7)-moddasi avtomatik tarzda qo‘llanishiga sabab bo‘lmaydi. Mazkur qoida Ustavda keltirilgan dalillarning maqbulligi to‘g‘risidagi umumiy normalarga nisbatan *“lex specialis”* (maxsus norma) hisoblanadi. Mazkur yondashuv dalillarni qabul qilishning umumiy tartibidan aniq mustasno holat sifatida talqin qilinadi (Murphy, 2010).

Xalqaro Jinoiy Sud (XJS) Statuti dalillarni qabul qilish masalasida ko‘plab texnik qoidalardan voz kechib, maksimal darajadagi moslashuvchan tizimni qo‘llashga intilgan. Shunga qaramay, ayrim olimlar XJSning huquqiy asosini mukammal deb hisoblamaydilar. Ularning fikricha, sudning dalillarga oid qoidalari hatto *ad hoc* tribunallarnikidan ham noaniqroq bo‘lib, o‘zida o‘zaro ziddiyatli elementlarni mujassam etgan (Jasiński, 2016, p. 396). Umuman olganda, dalillarning maqbulligi standarti uchta asosiy mezon bilan belgilanadi: *aloqadorlik, isbotlovchi qiymat va zararli ta’sir* (sud jarayonining adolatligiga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirga nisbatan o‘lchanadigan isbotlovchi qiymat). Mazkur mezonlar og‘zaki bo‘lmagan dalillarning maqbulligini aniqlashda uch bosqichli yondashuvni tashkil etadi.

Birinchidan, Palata dalillarning sud jarayoni uchun *prima facie* (dastlabki dalillarga asoslangan) ahamiyatga ega ekanligini ta’minlashi lozim. Chunki ushbu dalillar ayblanuvchiga qo‘yilgan ayblovlarni tergov qilishda hamda jabrlanuvchilarning fikr va xavotirlarini ko‘rib chiqishda Palata o‘rganishi shart bo‘lgan masalalarga bevosita daxldordir. Keyingi bosqichda Palata ushbu dalillarning *prima facie* asosida isbotlovchi qiymatga ega yoki yo‘qligini baholashi zarur. Nihoyat, zarurat tug‘ilganda, dalillarning isbotlovchi qiymati uning keltirishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’siri (zarari) bilan qiyoslanishi lozim (Murphy, 2010).

Bunday uch bosqichli yondashuv ko‘pincha sun’iy va haddan tashqari murakkab bo‘lib tuyulishi mumkin. Sababi, u dalillarning maqbulligi bo‘yicha uzoq davom etadigan qarorlar qabul qilishni talab etadi va vaholanki bunday qarorlar Nizom yoki Qoidalarga ko‘ra majburiy hisoblanmaydi. Aniqlik uchun, noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillarga oid masalalar ularni baholash jarayonida emas, balki aynan qabul qilish bosqichida ko‘rib chiqilishi talab etiladi. Biroq III sud palatasi “Prokuror Bembaga qarshi” ishida sudga chaqiriladigan barcha guvohlar ko‘rsatmalarini va ayblov tomoni dalillar ro‘yxatiga kiritgan barcha hujjatlarni, jarayon boshlanishidan avval *prima facie* asosida qabul qilishga qaror qildi. Sudyalarning fikricha, “maqbullik to‘g‘risidagi qaror har qanday dalilni qabul qilishning majburiy sharti emas, chunki u materialning ish uchun dastlabki ahamiyatga ega ekanligini baholash bilan cheklanadi” (Jasiński, 2016).

Sud palatasi yuqorida ko‘rsatilgan barcha dalillarni har birining asosligini alohida baholamasdan, shunchaki qayta ko‘rib chiqilgan dalillar ro‘yxatidagi *“prima facie maqbullik”* (dastlabki yetarli asoslar) prinsipi asosida qabul qilgan edi. Biroq bu qaror keyinchalik Apellyatsiya palatasi tomonidan bekor qilindi. Apellyatsiya palatasining xulosasiga ko‘ra, Sud palatasi ikki usuldan birini tanlashi lozim: yo har

bir dalilning aloqadorligi va maqbulligini ular taqdim etilgan vaqtda ko'rib chiqishi, yoki bu masalani ishni mazmunan ko'rib chiqish yakuniga qadar qoldirib, dalillarni ayblanuvchining aybdorligi masalasi bilan birgalikda umumiy tahlil qilishi kerak. Shuningdek, Apellyatsiya palatasi Rim statutining 74-moddasi 2-qismiga tayanib, Sud palatasi yakuniy qarorini faqat "sud majlisida taqdim etilgan va muhokama qilingan" dalillar asosida qabul qilishi shartligini alohida ta'kidladi.

Xalqaro jinoiy sud (XJS) faoliyatining va dalillar bilan bog'liq tartiblarning muhim jihati shundaki, Rim statutiga ko'ra, protsessual va dalillarga oid qoidalar sudyalardan tomonidan emas, balki Ishtirokchi davlatlar assambleyasi tomonidan qabul qilinadi. Sudyalarga nisbatan bunday ishonchsizlik jiddiy va shubhasiz salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, bu sudning zaruriy rivojlanishini sezilarli darajada cheklab, sudyalarni asosan mexanik vazifalarni bajaruvchi ijrochilarga aylantirib qo'yadi. Bu esa o'z navbatida XJSning adolatli sudlov organi sifatidagi samaradorligiga hamda sudyalarning o'z vakolatlarini to'laqonli amalga oshirish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shubhasiz, isbotlash qoidalarining izchil qo'llanishi adolatli va samarali sud jarayonini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Yuqorida tahlil qilingan qonunchilik va sud amaliyoti – Xalqaro harbiy tribunallar, Xalqaro jinoiy tribunallar hamda doimiy Xalqaro jinoiy sud o'rtasidagi farqlarga qaramay, ko'plab o'xshashliklarni ko'rsatadi. Ushbu sud muassasalari tajribasini qiyoslash umumiy jihatlar ko'pligini ko'rsatadi. Umuman olganda, o'rganilgan barcha xalqaro sud organlarida dalillarning maqbulligini baholashda moslashuvchan va erkin yondashuv ustuvorlik qiladi.

Biroq "erkin isbotlash" tushunchasi "sudyalardan tomonidan dalillarning manbai yoki ishonchliligini tekshirmasdan qabul qilinishidagi tizimli xato" sifatida talqin qilinishi ham mumkin. Bunday xatoning oqibati esa dalillarning buzilishiga (protsessual qiymatini yo'qotishiga) olib keladi.

Xalqaro sud jarayonlaridagi dalillar bo'yicha o'tkazilgan nufuzli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "xalqaro tribunallar dalillarning tabiati va ularni qabul qilish yoki rad etish masalalarida deyarli qiyinchilikka duch kelmaydi". M.O. Xudsonning fikricha, dalillar to'g'risidagi xalqaro huquqni tartibga soluvchi yagona va umumiy qoidalar hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli xalqaro tribunallar bu borada milliy sud tizimlariga xos bo'lgan qat'iy cheklovlardan xolidir. Maxsus protsessual normalardan tashqari, xalqaro tribunallar haqiqatni aniqlash uchun dalillarni qabul qilish va ularga baho berishda to'liq mustaqillikka ega. Xalqaro tribunallar amaliyotida bahsli faktlarni isbotlash uchun "barcha mumkin bo'lgan vositalarni qabul qilish" tendensiyasi ustuvorlik qiladi. Boshqa xalqaro organlardan farqli o'laroq, xalqaro jinoiy sudlarda dalillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki bu yerda gap davlatlarning mavhum javobgarligi emas, balki aniq bir shaxsning jinoiy aybdorligini belgilash haqida boradi. Shunga qaramay, xalqaro jinoiy tribunallar dalillarni to'plash va ulardan foydalanish jarayonida davlatlar bilan hamkorlikni ta'minlash borasida muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Xalqaro jinoyat huquqi amaliyotida dalillarni baholash masalasi sud qarorining asoslanganligi va odil sudlov tamoyillarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu borada Xalqaro jinoyat sudi (XJS) amaliyotidagi "*Prosecutor v. Jean-Pierre Bemba*

*Gombo*” ishi muhim pretsedent hisoblanadi. Mazkur ish doirasida sud Markaziy Afrika Respublikasidagi qurolli mojarolar davomida sodir etilgan jinoyatlarga doir dalillarni keng ko‘lamda tahlil qildi. Sud tomonidan ko‘rib chiqilgan dalillar majmuasi turli manbalardan shakllantirilgan bo‘lib, ular guvohlarning ko‘rsatmalari, ekspert xulosalari, rasmiy hujjatlar hamda audio va video materiallarini o‘z ichiga olgan. Sud dalillarni baholash jarayonida ularning o‘zaro mosligi (*corroboration*) tamoyiliga alohida e‘tibor qaratgan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, har qanday dalil boshqa mustaqil dalillar bilan tasdiqlanishi yoki ularga mos kelishi lozim. Sudning ta‘kidlashicha, guvohlarning ko‘rsatmalari alohida holda emas, balki boshqa mavjud dalillar bilan qiyoslash orqali baholanadi. Masalan, ayrim guvoh bayonotlarining ishonchliligi ekspert hisobotlari va hujjatli dalillar bilan solishtirish orqali aniqlangan. Sud jarayonida ekspert xulosalarining ahamiyati alohida qayd etildi. Xususan, harbiy ekspertlar va inson huquqlari bo‘yicha mutaxassislar xulosalari jinoyatlarning sodir etilish mexanizmini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Ekspert xulosalari guvoh ko‘rsatmalari bilan taqqoslanib, ularning ishonchlilik darajasi (*credibility*) va voqelikka mosligi tekshirildi.

Sud qarorida ta‘kidlanishicha, dalillarning ishonchliligini aniqlashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- dalil manbasining ishonchliligi;
- dalillarning o‘zaro muvofiqligi va bir-birini tasdiqlashi;
- ekspert xulosalari bilan mustahkamlangani;
- dalillarni to‘plash jarayonining qonuniyligi.

Sud shuningdek, dalillarni baholashda ularning har biri alohida emas, balki yaxlit (kompleks) holda ko‘rib yondashish zarurligini qayd etgan. Bunday uslub xalqaro jinoyat ishlarining o‘ta murakkabligi va dalillar manbasining ko‘pligi bilan izohlanadi. Natijada sud dalillarni tizimli ravishda tahlil qilib, ularning o‘zaro muvofiqligi hamda ekspert xulosalari bilan tasdiqlanishini muhim mezon sifatida e‘tirof etgan. Ushbu yondashuv xalqaro jinoyat sudlarida dalillarni baholashning muhim metodologik prinsipi hisoblanadi (Amerasinghe, 2005).

Jadval

#### Dalillarning ishonchliligi va maqbulligi mezonlarining tizimlashtirilishi

No	Dalillarning maqbulligi	Dalillarning ishonchliligi
1	Qonuniy yo‘l bilan olinganligi	Manbaning ishonchliligi
2	Inson huquqlarining buzilmaganligi	Dalilning yaxlitligi
3	Protsessual talablarga mosligi	Dalillarning o‘zaro mosligi
4	Ish uchun ahamiyatligi	Ekspertiza orqali tasdiqlanishi
5	Dalilning autentligi	Dalilning aniqligi va to‘liqligi

#### Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan ayrim muammolarga qaramasdan, sud amaliyoti odatda odil sudlov talablarini ta‘minlash va sud jarayonini

samarali boshqarish o'rtasida zarur muvozanatni topa olgan. Bu jarayon tortishuv tamoyillari asosida murakkab kechgan bo'lsa-da, dalillarning huquqiy tabiati va mohiyati saqlab qolindi. Dalillarning maqbullik mezoniga alohida e'tibor qaratilishi (jadval) xalqaro jinoiy odil sudlovni an'anaviy xalqaro sudlar va tribunallardan ajratib turadi. Zero, an'anaviy tizimlar tabiatan ancha moslashuvchan protsessual qoidalarga va dalillarni baholash tizimiga moyil bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqida dalillarni baholash masalasi doimiy bahslarga sabab bo'lishiga qaramay, har qanday dalilni talab qilish, to'plash va saqlash jarayonida inson huquqlarini himoya qilish ustuvor ahamiyatga ega. Agar dalillar inson huquqlarini buzish va zarar yetkazish evaziga qo'lga kiritilgan bo'lsa, ular isbot qilish jarayonidan so'zsiz chiqarib tashlanadi va yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

## REFERENCES

1. Al-Muhtadi Billah, A. (2010). *The general theory of international criminal justice*. Dar Al-Nahda Al-Arabiya.
2. Ambos, K. (2013). *Treatise on international criminal law* (Vol. 1). Oxford University Press.
3. Amerasinghe, C. F. (2005). *Evidence in international litigation*. Martinus Nijhoff Publishers.
4. Burda, E. (2008). *Teoretické a praktické problémy dokazovania [Theoretical and practical problems of evidence]*. In *Proceedings of the national conference with international participation held on 15 December 2008*. Bratislava University of Law.
5. Cassese, A. (2013). *International criminal law* (3rd ed.). Oxford University Press.
6. Fallah, S. M. (2020). The admissibility of unlawfully obtained evidence before international courts and tribunals. *The Law & Practice of International Courts and Tribunals*, 19(2), 147–176.
7. Goodhart, A. L. (2008). The legality of the Nuremberg trials. In G. Mettraux (Ed.), *Perspectives on the Nuremberg trial* (pp. 628–629). Oxford University Press.
8. Jasiński, W. (2016). Admissibility of illegally obtained evidence in proceedings before international criminal courts. In B. Krzan (Ed.), *Prosecuting international crimes: A multidisciplinary approach* (pp. 217–242). Brill.
9. Khattab, A. R. (2009). *Evidence before the international judiciary* (1st ed.). Dar Al-Fikr University.
10. Kress, C. (2003). The procedural law of the International Criminal Court in outline: Anatomy of a unique compromise. *Journal of International Criminal Justice*, 1(3), 603–617. <https://doi.org/10.1093/jicj/1.3.603>
11. Mathern, V. (1984). *Dokazovanie v ceskoslovenskom trestnom procese [Evidence in the Czechoslovak criminal process]*. Review.

12. May, R. & Wierda, M. (2002). *International criminal evidence*. Transnational Publishers.
13. Murphy, P. (2008). Excluding justice or facilitating justice? International criminal law would benefit from rules of evidence. *The International Journal of Evidence & Proof*, 12(1), 1–31.
14. Murphy, P. (2010). No free lunch, no free proof: The indiscriminate admission of evidence is a serious flaw in international criminal trials. *Journal of International Criminal Justice*, 8(2), 539–573.
15. Murphy, P. (Ed.). (2003). *Evidence, proof, and facts: A book of sources*. Oxford University Press.
16. Pal, R. (2008). Judgment of the Hon'ble Mr. Justice Pal, member from India. In N. Boister & R. Cryer (Eds.), *Documents on the Tokyo International Military Tribunal: Charter, indictment and judgments* (p. 932). Oxford University Press.
17. Piragoff, D. K. (2001). Evidence. In R. S. Lee (Ed.), *The International Criminal Court: Elements of crimes and rules of procedure and evidence* (pp. 349–400). Transnational Publishers.
18. Prosecutor v. Aleksovski, (1999, February 16) (Decision on Prosecutor's Appeal on Admissibility of Evidence), No. IT-95-14/1-AR73, Appeals Chamber, ICTY.
19. Prosecutor v. Tadić, (1996, August 5) (Decision on Defence Motion on Hearsay), No. IT-94-1-T, Trial Chamber, ICTY.
20. Sandifer, D. V. (1939). *Evidence before international tribunals*. The Foundation Press.
21. Schabas, W. A. (2016). *The International Criminal Court: A commentary on the Rome Statute* (2nd ed.). Oxford University Press.
22. Syrový, M. (2007). Použitie nezákonne získaného dôkazu v trestnom konaní [Use of illegally obtained evidence in criminal proceedings]. *Bulletin of the Slovak Bar Association*, (3), 7–14.
23. Taylor, T. (1993). *The anatomy of the Nuremberg trials: A personal memoir*. Bloomsbury.
24. Thakur, R., & Malcontent, P. (Eds.). (2004). *From sovereign impunity to international accountability: The search for justice in a world of states*. United Nations University Press.
25. United Nations. (1994). *Annual report of the International Tribunal for the Prosecution of Persons Responsible for Serious Violations of International Humanitarian Law Committed in the Territory of the Former Yugoslavia since 1991 (A/49/342; S/1994/1007)*.
26. Wallach, E. J. (1999). The procedural and evidentiary rules of the post-World War II crimes trials: Did they provide an outline for international legal procedure? *Columbia Journal of Transnational Law*, 37, 851–883.
27. Zahar, A., & Sluiter, G. (2008). *International criminal law: A critical introduction*. Oxford University Press.

# KRIMINOLOGIYA

## VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 1-son